



FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI

III-JILD

PHILOSOPHY AND FAITH:
PAST, PRESENT AND FUTURE

International Scientific and Practical Conference
PROCEEDINGS
Volume - 3

ФИЛОСОФИЯ И ВЕРА:
ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ

Международная научно-практическая конференция
МАТЕРИАЛЫ
Том - 3

23-24-aprel, 2025

**“FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
TASHKILIY QO'MITASI**

Tashkiliy qo'mita raisi:

G'.I. Muxamedov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

B.X. Eshchanov

S.B. Qorayev

D.B. Axmadjanov

O.A. Ortiqov

S.X. Gayupova

R.A. Ikramov

L.K. Axatov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri.

Tashkiliy qo'mita ishchi guruhi:

Madalimov T.A.

Jo'rayev H.A.

Koshanova N.M.

Tashmetov T.X.

Karshiyev Sh.S.

Neshitov P.Yu.

Xaytmetov R.K.

Muhammadiyev L.G.

Nafasov A.K.

Eronov S.Q.

Saidusmanov B.A.

Usmanov A.X.

Sunnatov T.R.

Tuganova L.Dj.

Toshtemirov R.A.

Ilmurodova f.Sh.

Yo'ldoshev U.X.

Abdullayeva D.N.

Sa'dullayeva M.X.

Xolmo'minov G.B.

Miraxmedova Sh.N.

Yakubov X.M.

Imomova U.I.

Tadjibayeva R.O.

Umarova Sh.B.

Yursinboyev J.M.

Nurmanov Sh.J.

Abdullayev T.S.

Maxkamov D.Sh.

Ilyosov Sh.B.

Burliyev U.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING DINIY QARASHLARI

Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich

CHDPU Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi t.f.f.d.(PhD)

Email: baxrom.said@mail.ru

Zumrad Shomurodova Gulimboy qizi

CHDPU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik ijodida keltirilgan diniy qarashlari, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari haqida so'z boradi. O'sha davr adabiyotining dinga munosabati va hozirgi davr adabiyotidagi diniy qarashlar o'rtasidagi tafovut yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: publitsistika, jadidchilik, iqro, Qur'oni karim, rasul, payg'ambar, muftiy, Ahmad Lutfiy Qozonchi, Alixonto'ra Sog'unii

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о религиозных взглядах Махмудходжи Бехбуди, духовно-просветительских идеях, представленных в его публицистических произведениях. Выделена разница между отношением литературы того периода к религии и религиозными взглядами в литературе современного периода.

Ключевые слова: журналистика, джадидизм, исповедь, Священный Коран, Посланник, Пророк, Муфтий, Ахмад Лютфи Казанчи, Алихантора Согоуни.

ANNOTATION

The article examines the religious views, spiritual and educational ideas of Mahmudhoja Behbudi in his journalistic activities. The differences between the religious views of literature of that period and the religious views of modern literature are revealed.

Keywords: journalism, jadidism, the Koran, prophet, mufti, Ahmad Lutfi Kazanchi, Alikhantora Soguni

Mahmudxo'ja Behbudi publitsistik merosini birinchilardan bo'lib o'rgangan olim professor Begali Qosimovdir. Olimning "Izlay-izlay topganim", "Milliy uyg'onish: ma'rifat, jasorat, fidoyilik" kabi monografiyalarida, uning rahbarligida yozilgan oliy o'quv yurtlari uchun "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligida jadid publitsistikasi, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik maqolalarida ko'tarilgan muammolar keng va atroflicha o'rganilgan. Mutafakkir asarlarida diniy va milliy masalalarining yoritilishi masalasi yuzasidan ham e'tiborga loyiq fikrlar aytilgan. Mutaxassislar milliy uyg'onish davri deb ataydigan XIX asr oxiri- XX asr boshlaridagi adabiy jarayonni, bu davrda yashab faoliyat ko'rsatgan,

millatni yuksak madaniyat va ma'rifatga targ'ib etgan ma'rifatparvar ijodkorlar, ayniqsa, Turkiston jadidchiligining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy merosini o'rganish bugungi kunda ayniqsa ahamiyatga ega.

Behbudiyning bu maqolasida Qur'oni karimning paygambarimiz Muhammad (s.a.v)ga qaytarzda nozil bo'lishidan boshlab, uni xalifalar kitob holiga kelturguniga qadar bo'lgan voqealar haqida bayon qilinadi. Bu maqola orqali biz Behbudiyning Qur'oni Karimni juda yaxshi bilganligini, diniy ilmni chuqur o'zlashtirgan inson bo'lganligini bilib olishimiz mumkin. Maqoladagi har bir ma'lumotni aniq va isbotlangan dalillar asosida yozilganligini Behbudiyning Qur'oni karimdan keltirgan oyatlari orqali ham bilib olishimiz mumkin. Payg'ambarimizga birinchi marta Xiro tog'ida Jabroil allayhissalom kelib "O'qi" deb 3 marta xitob qilganlarida bir sura nozil bo'lganligini yozgan: "Iqro bis mi rabbikallaziy xolaq. Xolaqal insane min alaq. Iqro va robbukal akrom. Allaziy allama bil qolam. Allamal insane ma lam ya'lam" [1. 49].

Behbudiy ta'kidlagan ayrim ma'lumotlarni, ya'ni Qur'oni Karim Rasulimizga qirq yoshga to'lganlarida nozil bo'lib, jami yigirma uch yil ichida oyat shaklida bo'linib-bo'linib kelganligini biz ayrim boshqa manbalarda ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Alixonto'ra Sog'uniyning "Tarixi Muxammadiy" asarida "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam qirq yoshga to'lganlarida yer ustidagi barcha insonlarga va ham jinlarga payg'ambar bo'ldilar. O'n uch yil Makkada turgandan so'ngra bu yerdan Madinaga hijrat qilishga Allohdan amr bo'ldi... Hijratdan o'n yil o'tgandan keyin Alloh amri bilan o'sha yili haj qilmoqchi bo'ldilar" [3. 350], deb keltirilgan. Shuningdek, Ahmad Lutfiy Qozonchining "Saodat asri qissalari" asarida ham Qur'on ilk nozil bo'lgan davrda Payg'ambarimizning yoshlari o'ttiz to'qqiz yosh olti oy deb keltirilgan. Demak, Behbudiy maqolani yozishda anchagina izlanishlar olib borgan va izlanishlari o'z natijasini ko'rsatgan. Balki Behbudiyning mana shu maqolasi olimlarning o'z asarlarini yozishda kerakli manba bo'lib xizmat qilgan bo'lishi ham mumkin.

Taniqli olim va xalq ma'rifatchisi bo'lgan Begali Qosimov ham Behbudiy ijodini o'rganib turib shunday so'zlarni aytadi: "Darhaqiqat, Behbudiy ruhoniyl shaxs bo'lgan. Biroq u o'ziga xos din arbobi edi. Uning umri bus-butun xalq manfaatlarini himoya qilish uchun baxshida etilgan edi. U o'zining jamoat va davlat arbobi sifatidagi qizg'in faolyatida ham hech qachon dindand chekinmaydi, ayni paytda ruhoniyl sifatida aslo xalq manfaatlariga xiyonat qilmadi" [2. 209].

Jadidchilik adabiyotimizning yirik vakillaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy juda bilimli, zakovatli, taqvodor va dindor inson bo'lgan. Behbudiy 24 yoshidagi haj safaridan so'ng muftiy darajasiga yetishadi va bu safari orqali Behbudiyning dunyoqarashi butunlay o'zgaradi. Haj ziyoratidan so'ng dunyo kezib ko'rgan-kechirganlarini maqola shaklida har xil gazeta va jurnallarda chop ettira boshlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asrning eng yorqin publisistlaridan biri edi. Behbudiyning o'zi tomonidan nashr etilgan va bosh muharrirlik qilgan "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalida chop qilingan maqolalari o'sha davr jamoatchiligi tomonidan zo'r qiziqish bilan qarshilangan. Uning yozgan maqolalarini butun O'rta Osiyo va Yevropaning ayrim davlatlari ham o'qib chiqar edi. Behbudiy millat erkinligi, yurt taraqqiyoti va yoshlarning ongini oshirish maqsadida diniy, ilmiy va ma'rifiy maqolalar chiqarishga ko'proq e'tibor qaratgan edi. Behbudiy chor Rossiyasi ilm va ma'rifat egalarini har tarafdin siquvga olayotgan davrda yashaganligiga qaramay, o'zining marifiy va diniy qarashlarini qo'rqmasdan ommaga havola eta oldi. Behbudiy maqolalarining mavzu ko'lami juda keng bo'lib, uning diniy mavzudagi maqolalari jamiyatning diniy ilmini oshirishga mo'ljallangan edi. Shunday maqolalaridan biri "Qur'oni karim tarixiga bir nazar" maqolasidir.

Payg'ambarimiz tiriklik chog'ida Qur'on kitob holida tartiblanmagan oyatlarni esa har bir sahoba yoddan bilgan yoki tosh, suyak, teri, va lavhlarga yozib borishgan. O'sha davrda juda ko'plab urushlar bo'lganligi tufayli Qur'onni yoddan biluvchilar soni kamayib ketayotganligidan xavotirga tushgan hazrati Abu Bakr va hazrati Umarlar Qur'on oyatlarini bir qilib kitob xoliga keltirishga qaror qiladilar va Umar Raziyallohu anhu barcha musulmonlarga fatvo beradi. Behbudiy Qur'on yig'ilayotgan davrda ayrim suralarning aslini topish qiyin bo'lganligi haqida ham ma'lumot keltirgan, Xususan, "Tavba" surasidagi ayrim oyatlarning topilish jarayoni haqida shunday deydi: "Surai "Tavba"dagi "Laqad jaakum..." oyati kelgan nusxalardan topilmagani uchun axtardilarki, Abu Xuzayma hazratlaridan topildi" [4. 26].

Behbudiy maqolada Hazrat Usmon hukmronlik qilgan davrda Qur'oni karimning asl nusxasidan jami olti nusxa ko'chirtirilgan va bu nusxalar Kufa, Basra va Shom davlatlariga jo'natilganligi va yana boshqa uch nusxasi Yaman, Makka, Baxrayn mamlakatlariga jo'natilganligi, bundan hazrati Usmonning maqsadi har bir musulmon kishining qalbiga islom dini birdek kirib borishi kerakligi haqida ma'lumotlar keltirgan. Behbudiy maqolada Usmon orqali o'quvchilarga o'zining fikrlarini, diniy g'oyalarini yetkazmoqchi bo'lgan.

Behbudiy o'z davrining fidoyi, ma'rifatparvar, qo'rqmas va har qanday qiyinchiliklarga chidamli insonlardan edi. Maqola juda ham qaltis davrda yozilgan bo'lishiga qaramay, Behbudiy maqolani chop etishdan, uni ommaga taqdim etishdan hech ham cho'chimagan. U tariximizning g'oyat og'ir davrida yashagan. Behbudiyning publisist sifatida faolyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z fikrlarini aniq, ochiq va ravon yozadi. Behbudiy bu maqolasida "chunki asl din bu erdi", "Asos dinimiz shul Qur'oni karimdur" [5. 5] degan so'zlari orqali o'z fikrini va o'z dinining qanchalik buyukligini, ulug'vorligini hammaga, ayniqsa, chor Rossiya hukumatiga bildirib qo'yimoqchidek tuyuladi, mening nazdimda.

Behbudiyning “Din va odat” maqolasida ham Islom dini asl din ekanligini boshqa dinlar bilan solishtirgan holda shunday deb yozadi: “Dunyo g‘a uch mingdan ziyod lison - til va bir mingdan ziyod din, mazhab borki, har biri o‘zlarini haq va boshqalarni botil biladur. Aqillik hakim va alloma odamlarni tahqiq va iqrorig‘a qaraganda, dunyo dini islomdan boshqa aql va hikmat g‘a muvofiq bir din yo‘qdur” [6. 3]. Ko‘rinib turibdiki, Behbudi o‘zining maqolalari orqali xalqning diniy qarashlarini kengaytirib, mustahkamlamoqchi bo‘lgan. Behbudiyning mana shunday jasorati va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini, diniy ilmlarni qo‘rqmasdan bayon eta olishi tufayli bizga juda ko‘plab ma’lumotlar yetib kelgan.

REFERENCES

1. Behbudi, M. (2018). *Tanlangan asarlar. Il-jild*. Akademnashr 49.
2. Behbudi, M. (1997). *Tanlangan asarlar*. Toshkent. 209.
3. Sog‘uniy, A. (2020). *Tarixi Muxammadiy*. Movarounnahr. 350.
4. Qosimov B. (1990). Behbudi va jadidchilik. *O‘zbekiston adabiyoti va san ‘ati* (01.26).
5. Qur’oni Karim “Alaq” surasi 1 -5 oyatlar
6. Холикова, Н. (2020). Узбек мумтоз адабиётида хотин-кизлар образининг бадий тадрижи (Ширин образи мисолида). *Academic research in educational sciences*, (3).
7. Abduganievich S. B. DEVELOPMENT OF THE RAILWAY AND AUTOMOBILE NETWORK OF UZBEKISTAN IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY (1945-1990) //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2025. – Т. 3. – №. 2. – С. 276-280.
8. Саидусманов Б. ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА АВТОМОБИЛЬ ТРАНСПОРТИ ТИЗИМИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШ ТАРИХИ (1945-1990) //TAMADDUN NURI JURNALI. – 2025. – Т. 1. – №. 64. – С. 337-339.
9. Саидусманов Б. А. ЎЗБЕКИСТОНДА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРИХИ (XX-АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 7. – С. 72-74.

UNING KELIB CHIQISHI, ASOSIY E'TIQODLARI	
64. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Yulduz Ashurova Erkinovna, Maftuna Abdumalikova Sobir qizi ISLOM DINI TARIXI VA MOHIYATI	227
65. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Siyovush Xikmatulloyev Jumanazar o'g'li ISLOM TA'LIMOTI. ISLOM ILOHIYOTI, UNING ASOSIY AQIDALARI	233
66. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Hadicha Rozmatova Azamat qizi Rayhona Jangirova Mansurbek qizi YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH VA UNGA OID SIYOSAT	238
67. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Zumrad Shomurodova Gulimboy qizi MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING DINIY QARASHLARI	241
68. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Dilafruz Movlonova Ne'matullaevna YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH VA UNGA OID SIYOSAT	245
69. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Sardor Davlatov Aamovich Samira Shorahimova Xurshed qizi YOSHLARDA TA'LIMIY VA TANQIDIY TAFAKKUR TUSUNCHALARI	248
70. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Gulsanam Nematova Furqatovna ABDULLA AVLONIY - MA'RIFATPARVARLIK VA ADABIY MEROS	251
71. Райхона Чамолитдонова БАЪЗЕ МАСЪАЛАҲОИ УСЛУБИВУ БАДЕЙ ДАР ЭҶОДИЁТИ ШОИРИ ЗУЛЛИСОҲАЙН - ТУРДӢ	254
72. Сарвиноз Расулова ИНФОРМАЦИОННЫЕ ВОЙНЫ	259
73. Sitora Tulavbayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MADANIY VA MA'NAVIY TARAQQIYOT	263
74. Feruza Azimboyeva Egambergan qizi Uyg'un Abdulhaqov Botir o'g'li DINSHUNOSLIK: TA'LIM VA TADQIQOT METODLARI	268
75. Sevinch Jurakulova Olim qizi Umida Abdumalikova Abdumalikova MILLATLAR VA DINLARARO BAG'RIKENGLIK: FALSAFIY TAHLIL	273
76. Сабрина Мамадисмонова ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В КИТАЕ	278
77. Асем Абдуллаева ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ФРАНЦИИ	282
78. Арайлым Ермуханова Шералиевна НЕПРЕРЫВНОСТЬ И СВОЕОБРАЗИЕ ПОНЯТИЯ КОММУНИКАЦИИ И ИНФОРМАЦИИ	286
79. Арайлым Ермуханова Шералиевна УГРОЗЫ И ОПАСНОСТИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ.	290
80. Абзалбек Жаксылыков МЕДИАГРАМОТНОСТЬ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ: КЛЮЧЕВЫЕ НАВЫКИ ДЛЯ КРИТИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ ИНФОРМАЦИИ	294